

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING YOSHLARDA FUQAROLIK TARBIYASINI RIVOJLANTIRISH BORASIDAGI PEDAGOGIK QARASHLARI

Abdullayev Dilshodbek Yuldashali o'g'li
Namangan davlat universiteti o'qituvchisi
abdullayevdilshodbek1992@mail.ru
+99897-214-48-08

Annotatsiya:

Mazkur maqolada yoshlarda fuqarolik tarbiyasini rivojlantirish borasidagi sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari va ularning bugungi kundagi amaliy ahamiyati xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: vatanparvarlik, fuqarolik pozitsiyasi, fuqaro, fuqarolik, sharq uyg'onish davri, axloq, odob, jamoa, axloqiy tarbiya, fuqarolik tarbiyasi.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ НА РАЗВИТИЕ ГРАЖДАНСКОГО ВОСПИТАНИЯ В МОЛОДЕЖИ

Аннотация:

В данной статье говорится о педагогических взглядах восточных мыслителей на развитие гражданского воспитания молодежи и их практической значимости на сегодняшний день.

Ключевые слова: патриотизм, гражданская позиция, гражданин, гражданство, Восточное Возрождение, нравственность, нравы, общность, нравственное воспитание, гражданское воспитание.

PEDAGOGICAL VIEWS OF EASTERN THINKERS ON THE DEVELOPMENT OF CIVIL EDUCATION IN YOUTH

Annotation:

This article deals with the pedagogical views of Eastern thinkers on the development of civic education of young people and their practical significance today.



Key words: patriotism, civic position, citizen, citizenship, Eastern Renaissance, morality, mores, community, moral education, civic education.

Mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish. Inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini, demokratik qadriyatlarni himoya qilish, aholining siyosiy madaniyati va huquqiy ongini oshirish, davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari o‘rtasida ijtimoiy sheriklik munosabatlarini hamda dolzarb masalalarni hal etishda hamkorligini kuchaytirish maqsadida «2021-2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi» qabul qilindi.

Konsepsiyada fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining samaradorligini oshirish, faoliyat qamrovini kengaytirish, shuningdek, ularning moliyaviy ta‘minotini mustahkamlash; yoshlar, bolalar, bandlik, xotin-qizlar, nuroniyalar, atrof-muhit muhofazasi bilan shug‘ullanuvchi nodavlat notijorat tashkilotlari tashkil etilishini qo‘llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish borasidagi ishlar belgilab berildi[1].

Mamlakatimizda ma‘naviy-ma‘rifiy islohotlarning samaradorligiga to‘siq bo‘layotgan ana shunday bir qator mavjud tizimli muammolarni va ularni bartaraf etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori qabul qilindi. O‘quvchi-yoshlar xulq-atvorida kuzatilayotgan loqaydlik, huquqbuzarlik, xudbinlik, ma‘naviy qashshoqlik, qat‘iyatsizlik, bezorilik, andishasizlik, mas‘uliyatsizlik, beqarorlik kabi salbiy xususiyatlarning namoyon bo‘lishi oila va ta‘lim muassasalaridagi yoshlarga berilayotgan ta‘lim-tarbiya mazmuni, shakllari, metodlari va vositalarining milliy va zamonaviy asoslarga muvofiq emasligidan dalolat beradi.

Insoniyat tarixida Islom dinining muqaddas kitobi “Qur‘on”ning vujudga kelish jarayoni Sharq olami uchun buyuk o‘zgarishlar davri, Sharq uyg‘onish davrining boshlanishiga sabab bo‘ldi. Natijada, yer yuzining katta qismida yashayotgan hududlarda islomiy ma‘naviyat – halol bilan haromni, iymonsizlik bilan imyon – e‘tiqodni, diyonat bilan diyonatsizlikni qat‘iy chegaralarini aniq belgilash imkoni tug‘ildi.

Mukammal dini bo‘lmish Islomda kishilarni irqi, millati, yashash joyi, tiliga qarab ajratish yo‘q edi. Hamma ixlosiga, e‘tiqodiga, qilgan mehnatiga yarasha qadr topar



edi. Shuning uchun ham aslida qobiliyatli bo'lgan Movarounnahr diyori aholisi Islomda o'zining murodi-maqsadi va halovatini topdi. Islom tufayli hayotning barcha sohalarida ulkan muvaffaqiyatga erishdi. Islom soyasi ostida bu diyorgullab-yashnadi. Xalq esa o'sha vaqtdagi dunyoning peshqadamlaridan biriga aylandi. Agar tarixga diqqat bilan nazar soladigan bo'lsak, hayotning barcha sohalarida ko'zga ko'ringan arboblardan, dunyoga dong'i ketgan buyuk shaxslar ayni Islom davlatida, islomiy hayot soyasida voyaga etganlar. Butun olamga fan, madaniyat, sivilizatsiya markazlari sifatida tanilgan shaharlarimiz ham qad rostlagan edi.

Islomda insonning aqliy kamoloti va tafakkurini rivojlantirishga katta e'tibor beriladi, unda bilim, aql inson kamolotining mezonini hisoblanib, inson ko'rish, eshitish, aqlni ishlatish vositasida bilish qobiliyatiga ega bo'ladi, deyilgan. Mustaqillikkacha bo'lgan davrda sho'ro islomshunoslari Islom faqat diniy ilmni o'rganishga chaqiradi, deb kelganlar. Vaholanki, "Qur'on"da ham dunyoviy bilimlar, ham diniy bilimlarni o'rganish targ'ib etilgan. Shuningdek, Islom dini g'oyalarida xulq va odob qoidalarini tarkib toptirishga ham e'tibor qaratilgan bo'lib, har bir shaxsning, jamiyatning ravnaq topishida axloqning o'rnini muhim ekanligi ta'kidlanadi.

"Qur'on"da inson egallashi kerak bo'lgan oliy xislatlardan biri sadoqat, deb ta'lim beriladi hamda sadoqat barcha yaxshiliklarning debochasi sifatida talqin etiladi. Darhaqiqat har bir jamiyatning ravnaqi shu jamiyatda yashayotgan quqarolarning vataniga, xalqiga sadoqatiga bog'liqdir. Sadoqat bor joyda ishonch, e'tiqod va taraqqiyot bo'ladi. Faqat sadoqat orqali kishilarda bir-biriga ishonch paydo bo'ladi.

Hadislar Islom dini ta'limotida "Qur'oni karim"dan keyin asosiy manba sanaladi. Hadislarda Muhammad alayhissalomning ibratli ishlari, e'tiqod, poklik va insonga xos ma'naviy-axloqiy xislatlarini ifodalovchi so'zlari, pand-nasihatlarini mujassamlangan.

Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Dorimiy Samarqandiy larni butun Islom olami hadis ilmining peshvolari deb tan olgan. Umuman hadis ilmi bo'yicha hech bir musulmon yurti bizning yurtimiz oldiga tusha olmaydi. Dunyo bo'yicha eng mo'tabar hadis kitoblari oltita bo'lib, shundan beshtasiga hamma yakdil ittifoq qilgan. Bular Imom Buxoriy, Imom Muslim, Imom Abu Dovud, Imom Termiziy va Imom Nasaiylarning kitoblari. Shulardan uchta—Imom Buxoriy, Imom Termiziy va Imom Nasaiylar yurtimiz farzandlaridir. Oltinchi o'rniga uchta kitob da'vogarlik



qiladi. Ulardan birining egasi bo‘lmish Imom Dorimiy Samarqandiy ham yurtimizdan chiqqan. Yana Imom Buxoriyning “Sahih”lari Qur’ondan keyingi eng ishonchli kitob deb tan olingan.

Imom al-Buxoriy to‘plamlariga kiritilgan hadislar faqat islom ta’limotiga oid umumiy qoidalarni aks ettirish bilan cheklanib qolmaydi. Ular mehr-muhabbat, saxiylik, ochiq ko‘ngillik, ota-ona, ayollar va kattalarga hurmat, etim-esirlarga muruvvat, faqir-bechoralarga himmat, vatanga muhabbat, mehnatsevarlik, halollikka da’vat etish kabi haqiqiy insoniy fazilatlar va namunali tartibotlar majmuasidir. Unda nima yaxshi, nima yomon, nimani qilish kerak, nimadan o‘zini tiyish lozimligi haqida hozirgi jamiyatimiz ahli, ayniqsa, yosh avlod uchun katta tarbiyaviy ahamiyatga ega yo‘l-yo‘riqlar, pand-nasihat va o‘gitlar aks ettirilgan.

IX asrdan boshlab Arab xalifaligi, Yaqin va O‘rta Sharqda ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar natijasida Sharq Uyg‘onish davri boshlanib, bu davrda ilm-fan taraqqiy etdi, ma’naviy yuksalish sari qadam qo‘yildi. Sharq Uyg‘onish davrida inson muammosi ma’naviy sohaning asosiy masalasiga aylandi. Shuning uchun ham ta’lim va tarbiya masalalariga katta e’tibor berilib, mutafakkirlar tomonidan yaratilgan asarlarda Sharqqa xos bo‘lgan insonning axloqiy-ruhiy kamolotini ulug‘lash etakchi o‘rinni egallagan.

IX-XVI asrlar falsafasi va pedagogikasida ta’limiy-axloqiy yo‘nalish muhim ahamiyat kasb etdi. “Fozil odamlar shahri”, “Baxt saodatga erishuv haqida”, “Axloq haqida risola”, “Qutadg‘u bilig”, “Hibatul-haqoyiq”, “Qobusnoma”, “Mahbub ul-qulub” kabi Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Koshifiy, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Abdurahmon Jomiy, alisher Navoiylarning asarlari inson shaxsini ma’naviy-axloqiy shakllantirish muammosini hal etishda sof pedagogik asarlar sifatida boy merosga aylandi.

Vatanni sevish va vatanga sodiq fuqaro bo‘lish insonning ma’naviy-axloqiy sifatlari ekanligi Buyuk allomalarimizning g‘oyalarida o‘z ifodasini topgan. Abu Nasr Forobiy o‘z davrida ijtimoiy-siyosiy masalalar bo‘yicha birinchi bo‘lib yirik asarlar yaratgan alloma sanaladi. U ayniqsa, davlat tuzilish va uni boshqarish, turli ijtimoiy nizolarni oldini olish hamda kamolotga erishgan ijtimoiy jamoa (jamiyat)ni yaratish singari masalalarni yoritdi. Yetuk jamoani vujudga keltirish komil insonni shakllantirish muammosini hal etish bilan bog‘liq ekanligini birinchi bor Forobiy O‘rta asr sharoitida g‘oyaviy masala sifatida olg‘a surdi.



Forobiyi insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan qarashlarida ijtimoiy hayot asosida inson, uning faoliyati, takomillikka intilishi yotishi, insonni baxt-saodatga eltuvchi jamoa yetuk jamoa bo'la olishi mumkinligi hamda shu jamoaga erishuvning yo'l-yo'riqlarini qidiradi hamda ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talabalarga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat deb biladi.

Forobiyning o'zida o'n ikki xislatni birlashtirgan kishini axloqli inson bo'lishini ta'kidlaydi, fikrimizcha "faol fuqarolik pozitsiyasi"ga ega bo'lgan yoshlarda ham xuddi shu xislatlarning ko'pchiligi bo'lishi zarur, masalan:

- barcha masalani, muhokama va mulohazani tezda va to'g'ri tushuna oladigan, uning ma'nosini anglayo oladigan, so'zlovchining maqsadi va aytilgan fikrning chinligini tezda payqay oladigan;
- zehni shu darajada tez va o'tkir bo'lsinki, biror narsaning alomatini sezishi bilan, bu alomat nimani bildirishligini tezda bili olsin;
- so'zlar aniq bo'lsin, fikrini va aytmoqchi bo'lgan mulohazalarini ravon va ravshan bayon eta olsin;
- bilish va o'qishga nisbatan muhabbati bo'lsin, o'rganmoqchi bo'lgan bilimni charchashni sezmasdan osonlik bilan o'zlashtira olsin;
- haqiqatni va haqiqat tarfdorlarini sevadigan bo'lsin, yolg'onchi va yolg'onchilarga nafrat bilan qaraydigan bo'lsin;
- ruhining g'ururiva vijdonini qadrlaydigan bo'lsin, uning ruhi va tabiati bilan past ishlardan yuqori va olijanob ishlarga ishlatiladigan bo'lsin;
- o'z tabiati bilan adolatni sevadigan va adolat uchun kurashuvchilarga, adolatsizlikka, jabr-zulm o'tkazuvchilarga nafrat bilan qaraydigan bo'lsin, o'z odamlari va boshqalarga adolatli bo'lsin, go'zal va yaxshi hisoblangan narsalarni barchaga taqdim etgan holda odamlarni adolatga to'g'ri targ'ib etadigan, adolatsiz oqibatlarini yo'qotadigan, ularga yo'l qo'ymaydigan bo'lsin;
- adolatli bo'lsin, ammo qaysar bo'lmasin, adolat oldida qaysarlik qilib, o'zibilarmonlikka berilmasin, lekin har qanday adolatsizlik, pastkashlik oldida lafzli bo'lsin, o'zi zarur deb bilgan narsasini amalga oshirishda qat'iylik ko'rsatsin, qo'rqmas, jasur bo'lsin, qo'rqish va ojizlikni bilmasin[2].

Buyuk mutafakkir Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig" asari ta'lim va tarbiya ma'naviy kamolotning yo'l-yo'riqlari, chora-tadbirlarini o'zida mujassamlashtirgan axloq va odobga oid darslikdir. Mutafakkir inson kamolotini bilim olishda deb



biladi. U dunyo yaralibdiki. Faqat bilimli kishilargina ezgu ish qilib, adolatli siyosat yurgizib kelgan, deb, inson yaratilgandayoq unga bilim, uquv-zakovat berilganligi, ana shu bilim va zakovat tufayli kishilar razolatdan poklanganligini uqtiradi. Hatto humdorlar ham yurtni, davlatni aql, ilm va zakovat bilan idora etsa, el-yurt farovon bo'ladi, to'q va tinch hayot kechiradi, deydi. U kuch va qurolni aql va bilimdan keyinga qo'yadi.

Yusuf Xos Xojib "Qutadg'u bilig" asarida to'rt qahramonning suhbatlari, munozaralari asosida o'z maqsadlari va g'oyalari bayon etadi. Insonni hayotda baxt-saodatga eltuvchi qarashlar to'rt ramziy qahramon: Kuntug'di – Elig podsho, adolat timsoli; Oyto'ldi – vazir, davlat timsoli; O'gdulmish – vazir, aql timsoli; O'zg'urmish – vazirning qarindoshi, qanoat timsolining hayoti va davlatni boshqarish jarayonidagi xatti-harakatlari va fikrlari misolida berilgan bo'lib, bular inson etukligining mezonlari sanaladi[3].

Bilimsiz bilimlga yov bo'ldi,

Bilimsiz bilimlga adovat qildi.

Olam tutish uchun kishi zakovatda bo'lsa,

Xalqni bosish uchun kishi o'ta zakovatli bo'lsa.

Jahongirga ming tuman san'at – shijoat kerak,

Unga tayansa va eldan tumanni (zulmatni) ko'tarsa.

XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asr tarixda Sharq Uyg'onish davrining ikkinchi bosqichi deb atalgan. Chunki bu davrda ilm-fan va madaniyat o'z tamoyillari, yo'nalishi jihatidan boshqa davrlardan farq qiladi. Bu davrda bir qator ilm maskanlari bunyod etildi. Shaybonixon madrasasi, Abdurag'im sadr madrasasi, Mirarab madrasasi, masjidi Kalon kabi inshootlarning qurilishi ta'lim-tarbiya jarayonida muhim bosqich bo'ldi. Aholining savodxonligini oshirish, maktablarda bolalarga diniy va dunyoviy bilimlar berish yo'lga qo'yildi.

Sharq Uyg'onish davrining ikkinchi bosqichi Amir Temur hukmronligi davrida Samarqand va Hirot shaharlari madaniyat, ilm-fan markaziga aylandi. Amir Temurning ijobiy xislatlaridan biri uning yurt obodonchiligi va me'morchiligiga e'tibor berishi, davlat, mamlakat va fuqaroning hamxo'ri bo'lganligi edi. U jahongirlik qoidasi sifatida haqiqat – sihat-salomatlik, haqiqat – tartib, haqiqat – adolatda deb bilgan.

Amir Temur davlatni mustahkamlashda qonun-qoidalarning tutgan o'rniga keng e'tibor berdi. Fransuz olimi Alfons de Lamartin Amir Temur davlati haqida shunday



deydi: Evropa na Iskandarda, na Atillada va na Moskoviya zafarini quchgan yangi fotih Napoleonda adolatli qonunlar asosiga qurilgan bunday boshqaruvni bunyod etgan emas.

Sohibqiron Islom dinini jamiyatda mafkuraning ustunlaridan biri deb hisobladi va barcha fuqarolarni, askarlarni musulmonchilik ruhida tarbiyalashga katta ahamiyat berdi. Uning “Kuch adolatdadir” degan tamoyil asosda davlatni boshqarishi yuksak qobiliyatidan dalolat beradi.

Mashhur muarrixlardan biri Nizomiddin Shomiy o‘zining “Zafarnoma” asosida shunday yozadi: “... uning adolatiyu siyosati o‘rnatilgan kunlarda Movarounnahrning eng chekka joylaridagina emas, balki Xo‘tan chegarasidan Dehli va Kanboyit atrofigacha, Bobil Abvobdan to Misr va Rum hududigacha bo‘lgan erlardan savdogarlar u erda tursin, boallaru, beva xotinlar ham ipakli matolar, oltin-kumush va eng zarur tijorat mollari keltirardilar va olib ketardilar. Hech kimsa ularning bir doniga ham ko‘z olaytira olmaydi va bir dirhamiga ham ziyon etkazmaydi. Bu cheksiz ne‘mat va poyonsiz marhamatlar Amir sohibqironning siyosati va adolati natijasidir”.

Shu o‘rinda Amir Temur shaxsi ustunligi va davlatni boshqarish qudratining sirlari, mohir sarkarda va tinchlik posboni, fuqaro rahnamosi sifatidagi shaxs ekanligi uning chinakam jamiyat barpo etishi uchun asos bo‘la oldi.

Darhaqiqat, Amir Temur o‘g‘itlari, pand-nasihatlari, hikmatli so‘zlari bir so‘z bilan aytganda, pandnomalari hozirgi yoshlarni milliy ruhda tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, ulug‘ bobomiz, juda chuqur, mazmuni, har jumlasini umumbashariy ahamiyat kasb etuvchi pandnomalari bilan maydonga chiqdi va butun umr davomida ana shu da’vatga sodiq qoldi, barcha fuqarosini unga amal qilishga undadi. “Biz kim mulki Turon, amiri Turkistonmiz. Biz kim – millatlarning eng qadimi va eng ulug‘i turkning bosh bo‘g‘inimiz”. Sohibqiron o‘z yurti, o‘z millati, elatini ana shunday ta’riflagan holda hamma vaqt unga sodiq bo‘lish, ana shu eng qdim va eng ulug‘ – “bosh bo‘g‘in”ga munosib farzand bo‘lishni ta’kidlaydi[4].

O‘zbek xalqining buyuk allomasi Alisher Navoiy o‘zining badiiy asarlarida komil inson, sadoqatli fuqaro obrazlarini yaratib, ta’lim-tarbiya to‘g‘risidagi fikrlarini ifodalagan bo‘lsa, ta’limiy-axloqiy asarlarida esa ana shunday etuk shaxsni shakllantirishning mazmuni, yo‘llari, usullari haqida so‘z yuritgan.



Navoiy tasavvuridagi komil insonga xos bo‘lgan eng yuksak fazilatlariga: ijodkorlik, qobiliyat, ilm-fanga muhabbat kiradi. Chunki, baxtli hayotga intilgan allamaning fikricha, oqil, qobiliyatli, dono inson o‘zining kuch-quvvatiga, aqlu zakovatiga ishonadi.

Shoir, tarjimon, tilshunos olim, balki davlat arbobi sifatida tarixda o‘chmas iz qoldirgan Alisher Navoiy butun hayoti davomida haqiqiy inson qanday bo‘lishi lozimligini ko‘rsatdi. 1472 yilning fevralida Xusayn Boyqaro Alisher Navoiyni saroyning bosh vaziri qilib tayinlaydi va unga “Amiri kabir” unvonini beradi.

Alisher Navoiy bosh vazirlik lavozimida avvalo butun kuchini mamlakatda tinchlik va osoyishtalik o‘rnatishga qaratdi. U yangi lavozimda avvalo butun kuchini mamlakatda tinchlik va osoyishtalik o‘rnatishga, vaqf ishlarini tartibga solishga qaratdi. Fuqarolarning farovonligi, hunarmandchilikni rivojlantirish, savdo-sotiqqa katta ahamiyat berdi. Alisher Navoiyning sa‘yi harakati bilan qishloqlarda dehqonchilik madaniyati rivojlandi, shaharlar, xususan Hirot kun sayin obod bo‘la boshladi.

Temuriylar sulolasining davomchilaridan yana biri Zahiriddin Muhammad Bobur O‘rta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va she‘riyatida o‘ziga xos o‘rin egallagan adib, shoir, olim bo‘lish bilan birga yirik davlat arbobi va sarkarda sifatida olamga mashhur bo‘lgan. Bobur o‘zining keng dunyoqarashi va mukammal aql-zakovati bilan Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos soldi va “Boburnoma” asari bilan dunyoning mashhur tarixnavis olimlari qatoridan joy oldi.

Biroq Boburning hayoti va faoliyati Movaraunnahrda siyosiy hayot nihoyat murakkablashgan feodal guruhlarining boshboshdoqlik harakatlari avjiga chiqqan va Temuriylar davlatining inqirozi davom etayotgan davrga to‘g‘ri kelgan edi. U buyuk davlat inqirozidan aziyat chekkan va bu holatlarni o‘z asarlarida ifodalagan. Bobur Temuriylar saltanatini himoya qilish va saqlab qolish uchun astoydil harakat qilib, Shayboniyxonga qarshi bir necha yil davomida muttasil kurash olib borsa-da, biroq mamlakatda hukm surgan og‘ir iqtisodiy tanglik va siyosiy parokandalik sharoitida o‘z maqsadiga erisha olmaydi. Taqdir taqozosi bilan o‘z yurtini tark etib, Afg‘oniston va Hindistonga yuz tutganda Bobur she‘riyatida Vatan tuyg‘usi, Vatan sog‘inchi va unga qaytish umidi aks etganligini ko‘rish mumkin.

Tole’ yo‘qki jonimga balolig‘ bo‘ldi,
Har ishnikim, ayladim xatolig‘ bo‘ldi,
O‘z erin qo‘yib Hind sori yuzlandim,



Yorab, netayin, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi.

Zahiriddin Bobur yoshlikdan boshlab to umrining oxirigacha ijodan to‘xtamadi, natijada, har jihatdan mukammal boy ilmiy va adabiy meros qoldirishga muvaffaq bo‘ldi. Uning “Topmadim” radifli g‘azali va “Yod etmas emish kishini g‘urbatda kishi” misrasi bilan boshlanuvchi ruboyisi o‘sha yillardagi hayoti bilan chambarchas bog‘liq.

Boburning vatanparvarlik bilan sug‘orilgan shaxsiy kechinmalari, uning she‘rlarida olg‘a surilgan g‘oyalar asrlar davomida umuminsoniy qadriyatlar darajaga ko‘tarildi. Uning ijodida kindik qoni to‘kilgan ona yurtini dildan qo‘msash, uning tuprog‘iga talpinish, g‘ariblik azoblaridan o‘tli hasrat, xalq va diyor sog‘inchi va unga qaytishga umidvorlik, taqdir zarbalari, turmush uqubatlari, zamona nosozliklaridan norozilik, Bobur garchi shoh bo‘lsada, Vatanga muhabbat hamda hijron azobi uning quyidagi misralarida o‘z aksini topgan:

XIX asr ijtimoiy-falsafiy, diniy-axloqiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotda so‘nggi va keyingi yuz yillikning boshlanish davri sifatida tarixdan o‘rin oldi. Jadidchilar harakati vujudga kelgunga qadar Turkistonda turli ma‘naviy-hoyaviy va mafkuraviy oqimlar qadimchilar, islohotlar, bedilchilar, mashrabxonlar, shuningdek, Markaziy Osiyo, umuman turkiy xalqlarga taalluqli bo‘lgan tafakkurning turli shakllari, ijtimoiy-falsafiy mazmun va yo‘nalishga ega bo‘lgan ma‘rifiy ta‘limotlar va nazariyalar mavjud edi[5].

Muallif B.Qosimov jadidchilikni oqim emas, harakat deb ta‘kidlaydi, chunki ijtimoiy, siyosiy va ma‘rifiy harakat yaqingacha ham ma‘rifatchilik harakati deb kelindi[6]. Bundan ko‘zlangan maqsad jadidchilikning doirasini toraytirish, sotsialistik-kommunistik mafkuradan boshqasi keng xalq ongini qamrab olishi mumkin emas, degan soxta tushunchaning asorati edi.

B.Qosimov jadidchilikning xarakteri va muddaosini 3 turga bo‘ladi:

- 1.Jamiyatning barcha qatlamlarini jalb etib, Uyg‘onish mafkurasi bo‘lib xizmat qildi.
- 2.Mustaqillik uchun kurash olib bordi, uning g‘ayrati va tashabbusi bilan dunyo ko‘rgan Turkiston muxtoriyati bu yo‘ldagi amaliy harakatning dastlabki natijasi edi.
- 3.Maorif va madaniyatni, matbuotni ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga moslab chiqdi.

O‘sha davrda ma‘rifatparvarlar davlat mustaqilligining qo‘ldan chiqishiga asosiy sabab, O‘rta Osiyoda siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy qoloqlik ekanligini anglab etganlar. Jadidchilar turli ijtimoiy qatlamlarning orasidan chiqqan zakovatli,



ilg'or ziyolililarning dastlabki avlodi sifatida o'z g'oyalarini rivojlantirib, ma'rifatdan siyosatga qarab yo'l oldilar.

Jadidchilik yangi usuldagi maktablarning tashkil etish harakati bilan o'z faoliyatini boshladi, chunki maqsad jamiyatni yangilash ekan, uni yangi avlodgina qura olishi mumkin edi. Shunday ekan zamon talabiga mos yosh avlodni tarbiyalash muammosi jadidchilarning o'z oldilariga qo'ygan asosiy maqsadlardan biri bo'ldi.

Ularning qarashlarida eng avvalo, aholining barcha ijtimoiy qatlamlari orasidagi savodsizlikni tugatish, eskirgan ta'lim tizimini isloh qilish ilgari surildi.

Bunday qarashlarning debochasini Ahmad Donish singari ma'rifatparvarlar boshlab bergan bo'lsa, ularning g'oya va qarashlarini Sadridin Ayniy, Abdulvohid Munzim, Mirkomil Burxonov, Usmonxo'ja Po'latxo'jayev, Xolidxoji Mehri, Mulla Vafo, Abdurauf Fitratlar rivojlantirdilar.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek xalqi tarixida jadidchilar birinchi bo'lib mustaqillik mafkurasiga asos soldi, Sharqda ozodlik, erk, milliy g'urur va sha'n haqida, buyuk ajdodlari, boy madaniyati, unutilayotgan qadriyatlarni tiklash, milliy rivojlanish pozitsiyasining boshida jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotini ta'minlash g'oyalarini olib chiqdilar.

1917 yilgi to'ntarishdan so'ng Markaziy Osiyoda yangi yo'nalishdagi mafkuraga asoslangan Turkiston Muxtor Jumhuriyati, Buxoro Xalq Respublikasi va Xeva Xalq Respublikasi tashkil etildi.

Shu davrdan boshlab aholi o'rtasida savodsizlikni tugatish, o'quv-tarbiyaviy ishlarni isloh qilish, Xalq maorifi tizimining yangi shakllarini joriy etish bo'yicha bir qator vazifalar belgilandi. Ayniqsa mahalliy millatga mansub xotin-qizlarni madaniyatga, ilm-fanga, ijtimoiy hayotda faol qatnashishga jalb qilish harakati avj oldi.

Sho'rolar davrida millat taqdiri, uning kelajagi haqida qayg'urgan Ishoqxon Ibrat, Saidahmad Siddiqiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Hamza Hakimzoda Niyoziy kabi maktablar faoliyatini tashkil etdilar.

Sobiq Sho'rolar davridagi mafkura ta'sirida xalqlarni iqtisodiy va ma'naviy xo'rlashlar, millatlar tabiatida loqaydlik, konformizm, mutelik, har qanday zo'ravonlikka ko'nikish illatlarining yuzaga kelishiga olib keldi. XX asrning 80-90 yillariga kelib kommunistik g'oyalar endi xalqlarni o'z ortidan ergashtira olmay qoldi, uning o'rnini bosadigan, xalqlarning orzu-umidlarini ifodalaydigan g'oyalar yaratilmadi[7].



Kommunistik g'oyalar aholining, xususan yoshlarning vatanparvarlik, milliy o'zlikni anglash kabi ma'naviy-axloqiy fazilatlarini yuksaltirishga xizmat qilolmadi.

1991 yilda O'zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligi e'lon qilindi. Mustaqillik o'zbek xalqining ming yillik orzusini amalga oshirdi va o'zining taraqqiyot yo'lini tanlab olishga imkon berdi.

Milliy Mustaqillik o'zbek xalqining chinakam ma'noda fuqarolikni his qilish imkoniyatini berdi, kishilarning dunyoqarashi, fikrlash tarzi tubdan o'zgardi. Xalqni yagona maqsad yo'lida birlashtiradigan, bunyodkorlik faoliyatiga undaydigan, uning ezgu maqsadlari va hayotiy manfaatlarini ifodalaydigan milliy g'oya va mafkurani yaratish orqali jamiyat a'zolarini fuqarolik ruhida tarbiyalash, ularning faol hayotiy pozitsiyani egallashlarini ta'minlash ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy taraqqiyotning muhim sharti sifatida maydonga chiqdi.

Milliy istiqbol mafkurasining asosiy maqsadlaridan biri – tanlagan taraqqiyot yo'limizning to'g'ri, adolatli va haqqoniy ekanligiga, mafkura mamlakatimizda istiqomat qiladigan har bir insonning hayotiy manfaatlariga mos tushishiga ishonirish, fuqarolarni ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo'lidagi bunyodkorlik ishlariga safarbar etishdan iborat bo'lib, u odamlar o'rtasida hamjihatlik, totuvlik, o'zaro yordam, vatan taraqqiyoti va istiqboli uchun qayg'urish xislatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

XX asrning 90 yillari va XXI asr boshlarida O'zbekistonda yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi ijtimoiy fanlarning tadqiqot ob'ektiga aylandi. Yoshlarni tarbiyalashda Vatan tuyg'usini vujudga keltirish uchun, ularda Vatan tushunchasini, ma'nosini, tarixini chuqur anglashni shakllantirib, uning kelajagi va taraqqiyotini o'ylashga xos bo'lgan hissiyotlarni ham tarbiyalamoq zarur, deb hisoblaydi tadqiqotchi Z.Abdurahmonova. Yoshlarda Vatan haqida shakllanadigan dastlabki tasavvur, tushuncha tarbiya jarayonida asta-sekin e'tiqodga, iymonga aylanadi va natijada ularning ichki ruhiy jarayonida chuqur tomir otib, faoliyatlariga maqsad va yo'nalish beruvchi ma'naviy zamin bo'lib qoladi.

Yuqori sinf o'quvchilarida faol fuqarlik pozitsiyasini shakllantirishda ta'lim va tarbiya uyg'unligiga erishish zarur. O'quvchi shaxs sifatida boshqa insonlar bilan, oilasi, mahallasi, tengdoshlar jamoasi, yurti, mamlakati va butun jamiyat bilan yaqindan bog'langanligi bois, ularga ta'lim-tarbiya berishning asosiy vazifasi ularni



o‘z-o‘zi bilan, oilasi, jamoasi, butun jamiyat bilan uyg‘un yashashga o‘rgatish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-martdagi «2021-2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-6181-sonli Farmoniga 1 –Ilova.
2. Fozil odamlar shahri. // Tuzuvchi: M.Mahmudov., Mas‘ul muharrir M.Xayrullayev. –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – 187 b. (222 b.)
3. Pedagogika tarixi. // Mualliflar: K.Hoshimov, S.Nishonova, M.Inomova, R.Hasanov. –T.: «O‘qituvchi», 1996-y. – 108 b.
4. Sohibqiron saboqlari / Tuzuvchi-muallif M.Murodov.-T.: O‘qituvchi, 1996 y. – 168 b.
5. Q.Nazarov. O‘zbek falsafasi. –T., 2003
6. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: Jasorat, ma‘rifat, fidoyilik. –T.: «Ma‘naviyat», 2020-y
7. Milliy g‘oya: asosiy tushuncha va tamoyillar. / Tuzuvchilar: B.B.Barotboev, E.SH.Oripov. 2016-y, 244-b